

***Bozorov Jamshid Norboy o'g'li***  
*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti.Bakalavr*  
*bozorovjamshit767@gmail.com, +998992177515*

**Annotatsiya:** O'zbekiston o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, me'moriy yodgorliklari va noyob madaniy an'analar bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada mamlakatda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ahamiyati, mavjud imkoniyatlar, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, xizmatlar sifati va xorijiy hamkorlikni rivojlantirish orqali soha salohiyatini oshirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, madaniy meros, me'moriy yodgorliklar, xizmatlar sifati, xalqaro hamkorlik, mahalliy aholi, ekologik barqarorlik.

**Abstract:** Uzbekistan is renowned for its rich historical and cultural heritage, which includes unique architectural monuments and centuries-old traditions. This paper analyzes the current state, challenges, and prospects of developing historical and cultural tourism in Uzbekistan. It highlights the importance of infrastructure development, local community involvement, service quality improvement, environmental sustainability, and international cooperation as key factors to boost the tourism sector.

**Keywords:** tourism, cultural heritage, architectural sites, local participation, sustainable development, international cooperation.

### **Kirish**

O'zbekiston — tarixiy va madaniy merosi bilan tanilgan Markaziy Osiyo davlatlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi tarixiy obidalar jahon miqyosida tanilgan bo'lib, har yili minglab xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Kuzatilayotgan bu holat tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish orqali madaniyatni targ'ib qilish hamda iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini anglatadi.

#### **Statistika**

Statistik ma'lumotlarga qaraganda:

2023-yilda mamlakatga kelgan xorijiy turistlar soni 6,6 million kishiga yetgan (2022-yilda — 5,2 million). Tarixiy shahrlar Samarqand, Buxoro, Xiva eng ko'p tashrif buyurilgan hududlar bo'lib, jami turistlarning 60% ini tashkil etgan.

Turizm sohasida band bo'lganlar soni 300 mingdan ortiq bo'lib, bu ko'rsatkich har yili o'sib bormoqda.

2024-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda 1 500 dan ortiq tarixiy yodgorliklar rasmiy ro‘yxatga olingan.

Davlat byudjetiga turizm sohasidan tushgan daromad \$2,5 milliard AQSH dollarini tashkil etgan.

Bu 2024-yilgi statistika ko‘rsatgichi hisoblanadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar tarixiy-madaniy turizmning iqtisodiy va madaniy jihatdan naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Tarixiy-madaniy turizmning asosiy yo‘nalishlari.

Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Ark qal’asi, va Xivadagi Ichon qal’a kabi obidalar turizmning asosiy tayanch nuqtalari hisoblanadi. Bu joylarda xalqaro miqyosda tan olingan festivallar, ko‘rgazmalar o‘tkazilishi turizm salohiyatini oshiradi.

Mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, zamonaviy transport tizimini yaratish va gidlik xizmatlarini rivojlantirish turistlarning mammunligini oshiradi. Shu bilan birga, milliy madaniyatga xos xizmat ko‘rsatish uslublari tajriba turizmini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, aholi turizm sohasiga faol jalb qilinsa, bu nafaqat ish o‘rnularini yaratadi, balki madaniy qadriyatlarning asrab qolinishiga ham hissa qo‘shadi. Shu bilan birgalikda mahalliy tadbirdorlikni rag‘batlantirish orqali xizmatlar spektrini kengaytirish mumkin.

Ko‘plab tarixiy obidalar atrofida ekologik muhofaza choralarini yetarli emas. Shu sababli turizmni ekologik jihatdan mas’uliyatli tarzda yo‘lga qo‘yish, chiqindilarni boshqarish va ekologik infratuzilmani joriy etish muhimdir.

Xalqaro hamkorlik va raqamli texnologiyalar

UNESCO, UNWTO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish O‘zbekistonning turizm brendini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli gidlar, onlayn bron qilish tizimlari va virtual ekskursiyalar sohani raqobatbardosh qiladi.

Natijalar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

Yodgorliklar atrofida infratuzilmani yaxshilash;

Mahalliy aholining turizm faoliyatida ishtirokini kuchaytirish;

Davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

Turizmga oid ta’lim dasturlarini kengaytirish;

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi loyihalarni amalga oshirish.

Yuqoridagi ketma-ketlikda ko‘rsatilgan rejalar amalga oshirilsa mamlakatda turizm sohasi ancha rivojlanadi.

Xulosa

O‘zbekiston tarixiy-madaniy turizmi katta salohiyatga ega bo‘lib, bu sohani izchil rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro imijini

mustahkamlashga xizmat qiladi. Turizmni faqat iqtisodiy emas, balki madaniy-ma'naviy yuksalish vositasi sifatida qarash zarur. Yangi yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston dunyo turizm xaritasida munosib o'rinn egallashi mumkin

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. (1997). Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: O'zbekiston.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy hisobotlari, 2023-yil. [www.tourism.gov.uz](http://www.tourism.gov.uz)
3. Xudayberganov Q.X., Muminov A.R. (2020). Turizm va servis asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
4. UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Madrid: United Nations World Tourism Organization. [www.unwto.org](http://www.unwto.org)
5. Islomov M., Yusupov B. (2022). "O'zbekistonda madaniy turizm istiqbollari", Ijtimoiy fanlar jurnali, 3(4), 45-51.
6. Rasulov B.M. (2021). Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish. Samarqand: SamDU nashriyoti.
7. UNESCO (2022). Cultural Heritage and Sustainable Tourism. Parij: UNESCO Publishing. [www.unesco.org](http://www.unesco.org)
8. Xasanova Z. (2023). "Tarixiy obidalar asosida turizmni rivojlantirishning dolzARB masalalari", Turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari, ilmiy to'plam, 2(1), 63-68.